

Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan “Navoiy izdoshlari — kelajak bunyodkorlari” mavzusida seminar-trening bo‘lib o‘tdi

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan “Navoiy izdoshlari — kelajak bunyodkorlari” mavzusida seminar-trening bo‘lib o‘tdi.

Tadbir moderatorligi SamDCHTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası professorı, f.f.d. U.D. Qarshıbayeva tomonidan olib borildi.

Seminar-treningda SamDCHTI Ikkinchi chet tillar kafedrası o‘qıtuvchılari — f.f.d., (PhD) T. Eshboyeva, N. Yaxyoqulova, G. Sunnatova, akademik litsey Xorijiy tillar kafedrası o‘qıtuvchısı U. Mamatjonova hamda litseyning 204-205-guruh o‘quvchılari faol ishtirok etdilar.

Seminar davomida Alisher Navoiyning boy adabiy merosi, uning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi. Tadbir o‘quvchılarning bilimini oshirish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi.







SamDChTI Akademik litseyi Axborot xizmati